O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI



# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra*
*(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)*

*Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, **2023**-yil 1-fevral holatiga respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) **572,0** mingtani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar **503,8** mingta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining o‘sishi **7,2** foizni (jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar **7,9** foiz) tashkil etdi.

## Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar

*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda.*



## Tadbirkorlik subyektlarning faollik darajasi to‘g‘risida ma’lumot




Bugungi kunda mamlakatimizda xususiy mulk, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, bu yo‘ldagi to‘siq va g‘ovlarni bartaraf etish maqsadida uzoqni ko‘zlab olib borilayotgan islohatlar samarasi milliy iqtisodiyotimizning chinakam tayanchiga aylandi.

Xususan, respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) **527,2** mingtani tashkil etdi. Ulardan 3 yil davomida **238,6** mingtani, 5 yil davomida **118,8** mingtani, 10 yil davomida **86,7** mingtani va 10 yildan ortiq davr davomida faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining soni **83,0** mingtani tashkil qiladi.

Hududlar kesimida jami faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soniga nisbatan 10 yildan ortiq davrda faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushlari Sirdaryo (**18,2** foiz), Andijon (**18,0** foiz), Farg‘ona (**17,4** foiz), Qashqadaryo **17,1** foiz) viloyatlari va Toshkent shahrida (**17,4** foiz) qayd etildi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

*2023- yil yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*

### Yillar kesimida soni




### Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | | |
|---|---|---|
| 491 / 1,0 %  Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 723 / 0,8 %  Sanoat | 426 / 0,9 %  Qurilish |
| 2 519 / 1,4 %  Savdo | 312 / 1,5 %  Tashish va saqlash | 388 / 1,1 %  Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar |
| 253 / 2,1 %  Axborot va aloqa | 118 / 1,0 %  Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 845 / 0,7 %  Boshqa turlar |

**2023-** yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni **2018-** yilning mos davri bilan solishtirilganda **978** taga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha **2018-** yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar **1 863** taga, oilaviy korxonalar **42** taga ko‘paygan.

### Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Toshkent sh. | 1 383 | 1,2 % | Namangan v. | 374 | 1,0 % |
| Farg‘ona v. | 563 | 1,1 % | Surxondaryo v. | 313 | 1,0 % |
| Toshkent v. | 501 | 0,9 % | Andijon v. | 308 | 0,7 % |
| Samarqand v. | 464 | 0,9 % | Qoraqalpog‘iston R. | 293 | 1,1 % |
| Xorazm v. | 447 | 1,6 % | Navoiy v. | 277 | 1,1 % |
| Qashqadaryo v. | 395 | 1,0 % | Jizzax v. | 222 | 0,9 % |
| Buxoro v. | 387 | 1,2 % | Sirdaryo v. | 148 | 0,9 % |

# Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

*2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda*

### *Yillar kesimida soni*

| | |
|---|---|
| 2023 | 572 021 |
| 2022 | 533 427 |
| 2021 | 481 509 |
| 2020 | 405 437 |
| 2019 | 335 752 |

### *Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**51 051** +7,9 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

**93 908** +2,3 %



Sanoat

**45 541** +3,5 %



Qurilish

**177 011** +11,6 %



Savdo

**20 207** +9,2 %



Tashish va saqlash

**35 065** +5,2 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

**11 879** +10,7 %




Axborot va aloqa

**11 442** +8,8 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

**125 917** +6,1 %



Boshqa turlar

**2023**- yil 1- fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **2022**- yilning mos davriga (**533 427** ta) nisbatan **38 594** taga oshganligini quyidagi sohalarda korxonalar sonining sezilarli o'sishi bilan ifodalash mumkin: savdo – **158 551** tadan **177 011** taga (o'sish **18 460** ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **47 319** tadan **51 051** taga (o'sish **3 732** ta), sanoat – **91 770** tadan **93 908** taga (o'sish **2 138** ta).

Shuningdek, ushbu davrda respublika darajasiga (**107,2** foiz) nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Xorazm (**112,8** foiz), Qashqadaryo (**111,6** foiz) va Samarqand (**109,0** foiz) viloyatlarida qayd etildi.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Toshkent sh. | 113 363 | 106,4 % | Buxoro v. | 33 313 | 106,7 % |
| Toshkent v. | 53 866 | 106,3 % | Surxondaryo v. | 30 033 | 105,2 % |
| Samarqand v. | 51 566 | 109,0 % | Xorazm v. | 28 471 | 112,8 % |
| Farg'ona v. | 49 609 | 105,7 % | Qoraqalpog'iston R. | 26 125 | 109,7 % |
| Andijon v. | 43 009 | 103,9 % | Jizzax v. | 24 966 | 108,4 % |
| Qashqadaryo v. | 40 604 | 111,6 % | Navoiy v. | 24 565 | 107,9 % |
| Namangan v. | 35 845 | 106,7 % | Sirdaryo v. | 16 686 | 104,5 % |

# Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*

### Yillar kesimida soni

| Yil | Soni |
|---|---|
| 2023 | 5 936 |
| 2022 | 6 943 |
| 2021 | 8 395 |
| 2020 | 8 393 |
| 2019 | 12 856 |

### *Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| Faoliyat turi | Soni | Foizda |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 491 | 1,0 % |
| Sanoat | 722 | 0,8 % |
| Qurilish | 426 | 0,9 % |
| Savdo | 2 519 | 1,4 % |
| Tashish va saqlash | 312 | 1,5 % |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 388 | 1,1 % |
| Axborot va aloqa | 253 | 2,2 % |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 116 | 1,2 % |
| Boshqa turlar | 709 | 1,1 % |












Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. **2023**-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni **5 936** ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar **5 920** ta;
- yirik korxonalar **16** tani nani tashkil etdi.

## Hududlar kesimida

| Hudud | Soni | Foizda | Hudud | Soni | Foizda |
|---|---|---|---|---|---|
| Toshkent sh. | 1 350 | 1,3 % | Namangan v. | 364 | 1,2 % |
| Farg‘ona v. | 551 | 1,3 % | Surxondaryo v. | 306 | 1,2 % |
| Toshkent v. | 491 | 1,0 % | Andijon v. | 302 | 0,8 % |
| Samarqand v. | 454 | 1,0 % | Qoraqalpog‘iston R. | 279 | 1,2 % |
| Xorazm v. | 443 | 1,7 % | Navoiy v. | 273 | 1,2 % |
| Buxoro v. | 384 | 1,3 % | Jizzax v. | 216 | 1,0 % |
| Qashqadaryo v. | 377 | 1,1 % | Sirdaryo v. | 146 | 1,0 % |

*2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni

| | |
|---|---|
| 2023 | 507 443 |
| 2022 | 470 163 |
| 2021 | 420 238 |
| 2020 | 344 228 |
| 2019 | 277 056 |

## Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida


50 585 +7,9 %
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi


93 811 +2,3 %
Sanoat


45 496 +3,5 %
Qurilish


176 985 +11,6 %
Savdo


20 154 +9,2 %
Tashish va saqlash


34 974 +5,2 %
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar



11 600 +11,0 %
Axborot va aloqa


9 924 +10,2 %
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish


63 914 +10,2 %
Boshqa turlar

Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni **2023-** yil 1- fevral holatiga **507,4** mingtaga yetib, **2019-** yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati **183,2** foizni tashkil etdi (**277,1** mingta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – **34,9** foiz, sanoat – **18,5** foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – **10,0** foiz, qurilish – **9,0** foiz, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – **6,9** foiz, tashish va saqlash – **4,0** foiz, axborot va aloqa – **2,3** foiz, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – **2,0** foiz, boshqa turlari – **12,4** foiz.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Toshkent sh. | 103 325 | 20,4 % | Buxoro v. | 29 882 | 5,9 % |
| Toshkent v. | 47 911 | 9,4 % | Surxondaryo v. | 26 085 | 5,1 % |
| Samarqand v. | 45 625 | 9,0 % | Xorazm v. | 25 325 | 5,0 % |
| Farg‘ona v. | 43 515 | 8,6 % | Qoraqalpog‘iston R. | 22 386 | 4,4 % |
| Andijon v. | 37 699 | 7,4 % | Navoiy v. | 22 353 | 4,4 % |
| Qashqadaryo v. | 35 666 | 7,0 % | Jizzax v. | 21 699 | 4,3 % |
| Namangan v. | 31 427 | 6,2 % | Sirdaryo v. | 14 545 | 2,9 % |

# Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*

### Yillar kesimida soni




### Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| Faoliyat turi | Soni | Foizda |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 491 | 1,0 % |
| Sanoat | 722 | 0,8 % |
| Qurilish | 426 | 0,9 % |
| Savdo | 2 519 | 1,4 % |
| Tashish va saqlash | 312 | 1,6 % |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 388 | 1,1 % |
| Axborot va aloqa | 253 | 2,2 % |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 116 | 1,2 % |
| Boshqa turlar | 693 | 1,1 % |

Mamlakat iqtisodiyotining “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, **2023**- yil yanvar oyida axborot-kommunikatsiya sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni **2022**-yilning mos davriga nisbatan **179** tadan **253** taga (o‘sish **74** taga), tashish va saqlash – **302** tadan **312** taga (o‘sish **10** taga) ko‘paydi.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Toshkent sh. | 1 342 | 1,3 % | Namangan v. | 364 | 1,2 % |
| Farg‘ona v. | 548 | 1,3 % | Surxondaryo v. | 306 | 1,2 % |
| Toshkent v. | 491 | 1,0 % | Andijon v. | 302 | 0,8 % |
| Samarqand v. | 454 | 1,0 % | Qoraqalpog‘iston R. | 278 | 1,2 % |
| Xorazm v. | 443 | 1,8 % | Navoiy v. | 271 | 1,2 % |
| Buxoro v. | 384 | 1,3 % | Jizzax v. | 216 | 1,0 % |
| Qashqadaryo v. | 375 | 1,1 % | Sirdaryo v. | 146 | 1,0 % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni

| | |
|---|---|
| 2023 | 503 804 |
| 2022 | 467 096 |
| 2021 | 417 244 |
| 2020 | 341 890 |
| 2019 | 274 949 |

## Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**50 444**
+8,0 %



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**93 021**
+2,3 %



Sanoat

**45 205**
+3,4 %



Qurilish

**176 294**
+11,6 %



Savdo

**19 991**
+9,3 %



Tashish va saqlash

**34 901**
+5,2 %



Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

**11 499**
+10,7 %




Axborot va aloqa

**9 822**
+10,1 %



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish

**62 627**
+9,9 %



Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko‘p kichik biznes subyektlari Toshkent shahrida (**20,2** foiz), Toshkent (**9,4** foiz), Samarqand (**9,0** foiz), Farg‘ona (**8,6** foiz) va Andijon (**7,5** foiz) viloyatlarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining **50** foizdan ortig‘i faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg‘or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida

| | | |
|---|---|---|
| Toshkent sh. | 101 763 | 106,6 % |
| Toshkent v. | 47 567 | 106,7 % |
| Samarqand v. | 45 416 | 109,9 % |
| Farg‘ona v. | 43 266 | 106,4 % |
| Andijon v. | 37 546 | 104,6 % |
| Qashqadaryo v. | 35 450 | 113,0 % |
| Namangan v. | 31 256 | 107,4 % |
| Buxoro v. | 29 726 | 107,2 % |
| Surxondaryo v. | 25 983 | 105,5 % |
| Xorazm v. | 25 190 | 114,3 % |
| Qoraqalpog‘iston R. | 22 297 | 111,1 % |
| Navoiy v. | 22 247 | 108,4 % |
| Jizzax v. | 21 620 | 109,4 % |
| Sirdaryo v. | 14 477 | 104,6 % |

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

### Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Qashqadaryo v. | 7 462 |
| Toshkent v. | 5 890 |
| Jizzax v. | 4 460 |
| Samarqand v. | 4 003 |
| Surxondaryo v. | 3 851 |
| Qoraqalpog‘iston R. | 3 617 |
| Buxoro v. | 3 465 |
| Andijon v. | 3 331 |
| Xorazm v. | 3 268 |
| Navoiy v. | 2 996 |
| Namangan v. | 2 960 |
| Sirdaryo v. | 2 458 |
| Farg‘ona v. | 2 293 |
| Toshkent sh. | 997 |




O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.



# Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

### Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Toshkent sh. | 15 869 |
| Farg‘ona v. | 10 070 |
| Toshkent v. | 9 641 |
| Andijon v. | 9 438 |
| Samarqand v. | 8 295 |
| Namangan v. | 7 572 |
| Qashqadaryo v. | 5 396 |
| Buxoro v. | 4 982 |
| Xorazm v. | 4 665 |
| Surxondaryo v. | 4 555 |
| Jizzax v. | 3 850 |
| Navoiy v. | 3 830 |
| Qoraqalpog‘iston R. | 3 553 |
| Sirdaryo v. | 2 192 |






Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So‘nggi uch yil ichida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o‘sish sur’ati **111,0** foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning **16,4** foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – **94,8** foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yil ning mos davriga nisbatan o‘sish **102,2** foiz), **3,1** foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o‘sish **104,4** foiz), **1,5** foizini suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish (o‘sish **107,2** foiz) va **0,6** foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash (o‘sish **106,0** foiz) tashki etgan.



# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

*2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda*

**Hududlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Toshkent sh. | 9 166 |
| Toshkent v. | 3 999 |
| Farg'ona v. | 3 788 |
| Qashqadaryo v. | 3 444 |
| Samarqand v. | 3 435 |
| Andijon v. | 3 318 |
| Buxoro v. | 2 999 |
| Surxondaryo v. | 2 932 |
| Qoraqalpog'iston R. | 2 455 |
| Namangan v. | 2 378 |
| Jizzax v. | 2 155 |
| Xorazm v. | 2 121 |
| Navoiy v. | 1 748 |
| Sirdaryo v. | 1 603 |




O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi **56,4** foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **103,6** foizga oshgan;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi **12,1** foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **126,3** foizga oshgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi **31,5** foiz ulushni va **96,7** foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

| | |
|---|---|
| 5 499 | Fuqarolik obyektlarini qurish |
| 14 343 | Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari |
| 25 699 | Bino va inshootlar qurish |

## Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

### Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Toshkent sh. | 34 866 |
| Samarqand v. | 18 056 |
| Farg‘ona v. | 16 346 |
| Toshkent v. | 16 183 |
| Andijon v. | 12 841 |
| Qashqadaryo v. | 12 078 |
| Namangan v. | 11 398 |
| Buxoro v. | 9 626 |
| Surxondaryo v. | 9 066 |
| Xorazm v. | 8 939 |
| Navoiy v. | 8 529 |
| Qoraqalpog‘iston R. | 7 302 |
| Jizzax v. | 6 525 |
| Sirdaryo v. | 5 256 |




Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning **99,6** foizi yoki **176,3** mingtasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi.

Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi **62,2** foiz ulushni tashkil etgan bo‘lib, **2022**- yilning mos davri bilan solishtirilganda o‘sish sur’ati **108,7** foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida **29,2** foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati **117,0** foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash yo‘nalishida **8,6** foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati **116,3** foizni tashkil etdi.



# 13 Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

**Hududlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Toshkent sh. | 7 092 |
| Samarqand v. | 4 363 |
| Toshkent v. | 3 935 |
| Farg‘ona v. | 2 716 |
| Buxoro v. | 2 504 |
| Andijon v. | 1 956 |
| Qashqadaryo v. | 1 936 |
| Surxondaryo v. | 1 797 |
| Xorazm v. | 1 719 |
| Namangan v. | 1 627 |
| Jizzax v. | 1 559 |
| Navoiy v. | 1 485 |
| Qoraqalpog‘iston R. | 1 453 |
| Sirdaryo v. | 923 |




**2023**- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘sish sur’ati **2019-** yilning mos davriga nisbatan **170,8** foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, **2023**- yil 1-fevral holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning **10,2** foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq–ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining **89,8** foiz ulushini tashkil etdi.

**3 592** — **Yashash bo‘yicha xizmatlar**

**31 473** — **Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar**

# Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

**Hududlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Toshkent sh. | 5 152 |
| Farg‘ona v. | 1 166 |
| Samarqand v. | 849 |
| Toshkent v. | 736 |
| Andijon v. | 617 |
| Namangan v. | 528 |
| Qashqadaryo v. | 490 |
| Qoraqalpog‘iston R. | 415 |
| Xorazm v. | 400 |
| Surxondaryo v. | 369 |
| Buxoro v. | 362 |
| Navoiy v. | 302 |
| Jizzax v. | 277 |
| Sirdaryo v. | 216 |




**2023**- yil 1- fevral holatiga ko‘ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining **20,3** foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati **2022**- yilning mos davriga nisbatan **105,8** foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo‘yicha faoliyat va teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo‘nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining **28,0** foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati **2022**- yilning mos davriga nisbatan **100,4** foizni tashkil etdi. Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko‘rsatish yo‘nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning **51,7** foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati **119,6** foizni tashkil etdi.



# Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Toshkent sh. | 2 213 |
| Farg‘ona v. | 1 234 |
| Andijon v. | 1 120 |
| Samarqand v. | 1 045 |
| Toshkent v. | 913 |
| Qashqadaryo v. | 854 |
| Buxoro v. | 821 |
| Namangan v. | 756 |
| Xorazm v. | 609 |
| Surxondaryo v. | 474 |
| Qoraqalpog‘iston R. | 474 |
| Navoiy v. | 364 |
| Jizzax v. | 351 |
| Sirdaryo v. | 214 |




Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – **9 924** ta yoki **86,7** foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki:

**94,8** foiz korxonalar sog‘liqni saqlash yo‘nalishiga to‘g‘ri kelib, o‘sish sur’ati **2022-** yilning mos davriga nisbatan **109,1** foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash yo‘nalishidagi korxonalar soni **2,7** foizni tashkil etib, o‘sish sur’ati **97,2** foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta’minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning **2,5** foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati **111,6** foizni tashkil etdi;



# Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlar toʻgʻrisida maʼlumotlar

*2023- yil 1- fevral holatiga koʻra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Toshkent sh. | 4 528 |
| Buxoro v. | 2 288 |
| Toshkent v. | 1 845 |
| Fargʻona v. | 1 793 |
| Andijon v. | 1 470 |
| Samarqand v. | 1 221 |
| Namangan v. | 1 188 |
| Qashqadaryo v. | 1 060 |
| Xorazm v. | 1 056 |
| Qoraqalpogʻiston R. | 985 |
| Surxondaryo v. | 847 |
| Navoiy v. | 803 |
| Jizzax v. | 609 |
| Sirdaryo v. | 514 |




**2023**- yil 1- fevral holatiga koʻra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar jami respublikadagi faoliyat koʻrsatayotgan korxonaning **3,5** foiz ulushini tashkil etdi.

**202**2- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yoʻnalishlari boʻyicha tahlillar shuni koʻrsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yoʻnalishida faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlarning oʻsish surʼati **109,7** foizni tashkil etdi;

ombor xoʻjaligi va yordamchi transport yoʻnalishining oʻsish surʼati **108,4** foizni;

pochta va kuryerlik yoʻnalishi **104,4** foizni tashkil etdi;

havo transporti yoʻnalishida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni **1,3** baravarga oshgan;

suv transporti yoʻnalishidagi korxonalar soni **3** taga kamaygan.

| Suv transporti | Havo transporti | Pochta va kuryerlik faoliyati | Ombor xoʻjaligi va yordamchi transport faoliyati | Quruqlikdagi va quvur transporti |
|---|---|---|---|---|
| 10 | 106 | 779 | 4 890 | 14 422 |

## Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

*2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

# Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida ma'lumot

*2023- yil yanvar holatiga ko'ra, birlikda*

*Yillar kesimida soni*

*Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| Faoliyat turi | Soni | % |
|---|---|---|
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 405 | 1,1 % |
| Sanoat | 525 | 0,9 % |
| Qurilish | 399 | 1,1 % |
| Savdo | 2 093 | 1,7 % |
| Tashish va saqlash | 299 | 1,7 % |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 275 | 1,5 % |
| Axborot va aloqa | 237 | 2,6 % |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 95 | 1,4 % |
| Boshqa turlar | 646 | 1,3 % |

**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Toshkent sh. | 1 275 | Andijon v. | 273 |
| Farg'ona v. | 453 | Qashqadaryo v. | 272 |
| Toshkent v. | 447 | Qoraqalpog'iston R. | 257 |
| Samarqand v. | 337 | Surxondaryo v. | 216 |
| Namangan v. | 332 | Navoiy v. | 204 |
| Xorazm v. | 326 | Jizzax v. | 159 |
| Buxoro v. | 281 | Sirdaryo v. | 142 |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

*Yillar kesimida soni* — *Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| Soni | O‘sish | Faoliyat turi |
|---|---|---|
| 36 374 | +12,2 % | Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi |
| 60 649 | +3,6 % | Sanoat |
| 37 702 | +5,4 % | Qurilish |
| 120 279 | +14,8 % | Savdo |
| 17 787 | +10,3 % | Tashish va saqlash |
| 18 221 | +8,4 % | Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar |
| 9 042 | +15,8 % | Axborot va aloqa |
| 6 778 | +13,4 % | Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish |
| 48 034 | +12,9 % | Boshqa turlar |












**2023**- yil 1- fevral holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan **507,4** mingta tijorat korxona va tashkilotlarining **354,9** mingtasi mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimida o‘sish sur’atlarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, eng yuqori ko‘rsatkich axborot va aloqada – **115,8** foiz, savdoda – **114,8** foiz, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – **113,4** foiz, qishloq,o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **112,2** foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Toshkent sh. | 87 302 | Qashqadaryo v. | 19 464 |
| Toshkent v. | 36 568 | Qoraqalpog‘iston R. | 16 642 |
| Andijon v. | 30 110 | Jizzax v. | 15 080 |
| Samarqand v. | 27 187 | Xorazm v. | 13 884 |
| Farg‘ona v. | 25 668 | Surxondaryo v. | 13 207 |
| Namangan v. | 23 512 | Navoiy v. | 12 336 |
| Buxoro v. | 22 446 | Sirdaryo v. | 11 460 |

# Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*

*Yillar kesimida soni* — *Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida


48
0,8 %
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi


62
0,4 %
Sanoat


19
0,3 %
Qurilish


267
0,7 %
Savdo


9
0,5 %
Tashish va saqlash


29
0,4 %
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar



11
0,6 %
Axborot va aloqa


11
0,4 %
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish


33
0,3 %
Boshqa turlar

**Xususiy korxona** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

**2023**- yil yanvar oyida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni **2022**- yilning mos davriga nisbatan **17** taga,qurilish **9** taga ko‘paygan.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo v. | 65 | Jizzax v. | 42 |
| Xorazm v. | 57 | Surxondaryo v. | 35 |
| Farg‘ona v. | 55 | Namangan v. | 17 |
| Buxoro v. | 51 | Andijon v. | 11 |
| Navoiy v. | 49 | Toshkent v. | 10 |
| Toshkent sh. | 49 | Qoraqalpog‘iston R. | 3 |
| Samarqand v. | 44 | Sirdaryo v. | 1 |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

*Yillar kesimida soni* — *Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




**2023**- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **0,1** foizga ko‘paydi.

Xususiy tadbirkorlik subyektlari o‘sish sur’atlarining o‘tgan yilga nisbatan ko‘payishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (**104,8** foiz), savdo (**102,4** foiz), tashish va saqlash sohalari (**100,9** foiz), viloyatlar kesimida esa – Qashqadaryo (**109,5** foiz), Samarqand (**108,4** foiz), Navoiy (**106,6** foiz) va Xorazm (**104,0** foiz) viloyatlari ta’sir ko‘rsatmoqda.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Toshkent sh. | 11 435 | Navoiy v. | 5 807 |
| Farg‘ona v. | 11 072 | Xorazm v. | 5 759 |
| Qashqadaryo v. | 10 585 | Andijon v. | 4 283 |
| Samarqand v. | 7 971 | Jizzax v. | 4 193 |
| Surxondaryo v. | 6 942 | Buxoro v. | 3 718 |
| Namangan v. | 6 061 | Qoraqalpog‘iston R. | 3 003 |
| Toshkent v. | 5 979 | Sirdaryo v. | 2 362 |

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*

*Yillar kesimida soni* — *Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

20
0,3 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

123
0,7 %

Sanoat

4
0,8 %

Qurilish

159
0,8 %

Savdo

4
0,9 %

Tashish va saqlash

83
0,9 %

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

5
1,3 %


Axborot va aloqa

10
1,6 %

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish

26
0,7 %

Boshqa turlar

**Oilaviy korxona** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Samarqand v. | 70 | Toshkent sh. | 22 |
| Xorazm v. | 59 | Navoiy v. | 20 |
| Surxondaryo v. | 53 | Qoraqalpog‘iston R. | 18 |
| Buxoro v. | 47 | Andijon v. | 14 |
| Farg‘ona v. | 36 | Jizzax v. | 14 |
| Toshkent v. | 33 | Namangan v. | 12 |
| Qashqadaryo v. | 33 | Sirdaryo v. | 3 |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

*Yillar kesimida soni* — *Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni **2023**- yil 1- fevral holatiga ko‘ra **2022**- yilning mos davriga nisbatan **3 060** taga ko‘paygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: savdoda – **16 838** tadan **18 876** taga (o‘sish **2 038** taga), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – **8 570** tadan **9 045** taga (o‘sish **475** ta), sanoatda – **16 055** tadan **16 457** taga (o‘sish **402** taga) sonining sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Samarqand v. | 9 855 | Toshkent sh. | 3 561 |
| Farg‘ona v. | 6 069 | Buxoro v. | 3 384 |
| Surxondaryo v. | 5 486 | Andijon v. | 2 790 |
| Xorazm v. | 5 355 | Qoraqalpog‘iston R. | 2 136 |
| Qashqadaryo v. | 4 888 | Jizzax v. | 2 013 |
| Toshkent v. | 4 823 | Namangan v. | 1 285 |
| Navoiy v. | 3 983 | Sirdaryo v. | 338 |

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*

*Yillar kesimida soni* — *Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)*




### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

2
0,3 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

32
0,8 %

Sanoat

13
1,1 %

Qurilish

91
1,9 %

Savdo

6
1,3 %

Tashish va saqlash

6
1,0 %

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

18
2,4 %


Axborot va aloqa

1
0,5 %

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish

38
1,5 %

Boshqa turlar

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

**2023**- yil yanvar oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o‘sish sur'ati **2022**- yilning mos davri bilan solishtirilganda **142.8** foizni tashkil etdi.

### Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Toshkent sh. | 147 | Navoiy v. | 4 |
| Toshkent v. | 14 | Namangan v. | 3 |
| Surxondaryo v. | 9 | Qashqadaryo v. | 3 |
| Samarqand v. | 6 | Sirdaryo v. | 2 |
| Buxoro v. | 5 | Xorazm v. | 2 |
| Farg‘ona v. | 4 | Qoraqalpog‘iston R. | 2 |
| Andijon v. | 4 | Jizzax v. | 2 |

# Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

*2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| Faoliyat turi | Soni | O'sish |
|---|---|---|
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 745 | +3,2 % |
| Sanoat | 4 237 | +3,3 % |
| Qurilish | 1 227 | +10,3 % |
| Savdo | 4 720 | +23,9 % |
| Tashish va saqlash | 460 | +27,1 % |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 627 | +13,4 % |
| Axborot va aloqa | 764 | +90,0 % |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 218 | +0,5 % |
| Boshqa turlar | 2 483 | +17,3 % |

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni **2.0** barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni **3 151** ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu respublikada xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining **20,4** foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Turkiya (ulushi **13,9** foiz), Xitoy (ulushi **13,6** foiz), Qozog'iston (ulushi **7,9** foiz) va Janubiy Koreya (ulushi **5,8** foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Toshkent sh. | 9 548 | Namangan v. | 309 |
| Toshkent v. | 1 633 | Navoiy v. | 279 |
| Samarqand v. | 683 | Qashqadaryo v. | 237 |
| Surxondaryo v. | 587 | Jizzax v. | 223 |
| Farg'ona v. | 567 | Sirdaryo v. | 212 |
| Andijon v. | 430 | Qoraqalpog'iston R. | 195 |
| Buxoro v. | 395 | Xorazm v. | 183 |

# Davlatlar kesimida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*




O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo‘yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o‘sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O‘zbekiston hukumati o‘z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko‘paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

# Davlatlar kesimida faoliyat koʻrsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar toʻgʻrisida maʼlumot

*2023- yil 1- fevral holatiga koʻra, birlikda*

| | |
|---|---|
| Rossiya | 3 151 |
| Turkiya | 2 152 |
| Xitoy | 2 104 |
| Qozogʻiston | 1 227 |
| Janubiy Koreya | 903 |
| AQSH | 350 |
| Qirgʻiz R. | 307 |
| Tojikiston | 293 |
| Ozarbayjon | 259 |
| Germaniya | 215 |
| Turkmaniston | 174 |
| boshqalar | 4 346 |

Oʻzbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yoʻnalishlariga eʼtibor berish, qoʻshni davlatlar bilan yaxshi qoʻshnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni begʻaraz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda Oʻzbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur boʻlgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini ragʻbatlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat koʻrsatayotgan korxonalardan **6 300** tasi qoʻshma korxonalar, **9 181** tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga toʻgʻri keldi.

# Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy va qo‘shma korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

| xorijiy korxonalar | | qo‘shma korxonalar |
|---|---|---|
| 6 262 | Toshkent sh. | 3 286 |
| 941 | Toshkent v. | 692 |
| 449 | Surxondaryo v. | 138 |
| 250 | Samarqand v. | 433 |
| 231 | Farg‘ona v. | 336 |
| 186 | Buxoro v. | 209 |
| 173 | Andijon v. | 257 |
| 127 | Namangan v. | 182 |
| 118 | Navoiy v. | 161 |
| 100 | Sirdaryo v. | 112 |
| 88 | Qoraqalpog‘iston R. | 107 |
| 86 | Qashqadaryo v. | 151 |
| 85 | Jizzax v. | 138 |
| 85 | Xorazm v. | 98 |

# Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan qo‘shma va xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*




So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotni jadal o‘zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to‘siqlarni bartaraf etishda qat’iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko‘payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog‘liq.

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo’lgan axborot-ma’lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.











# Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

**Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.**

**Statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi**
**Tel.: 71 202-80-90 (91)**